



ILK GUMANIZM NAMOYANDALARI VA O'RTA ASRLAR OXIRIDAGI MADANIY-INTELLEKTUAL O'ZGARISHLAR

Mamanov Anvar Abduvohid o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'rta asrlar oxirida Italiyada shakllangan ilk gumanizm oqimi va uning asosiy namoyandalari – Franchesko Petrarka, Jovanni Bokkacho, Koluchcho Salyutati, Leonardo Bruni, Poggio Bracchiolini va Lorenzo Valla – ijodi tahlil qilinadi. Maqolada gumanistlarning qadimgi yunon-rim madaniyatini qayta tiklash, skholastikani tanqid qilish va insonning aqli, dunyoviy faolligi hamda fuqarolik erkinligini targ'ib etishdagi roli yoritiladi. Shu bilan birga, ularning faoliyati Renessansning madaniy-intellektual poydevorini yaratib, Yevropa tarixida antropotsentrik dunyoqarashning shakllanishiga asos solganligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Ilk gumanizm, Petrarka, Bokkacho, Salyutati, Bruni, Poggio, Valla, Renessans, antropotsentrizm, Yunon-Rim madaniyati, skholastika, fuqarolik erkinligi, tarixshunoslik.

Yevropa madaniy hayotida XIV asr o'rtasi – XV asr boshlarida tub burilish yuz berdi. Italiya shahar-respublikalarining iqtisodiy gullashi, savdo-sotiq va hunarmandchilikning jonlanishi, shahar fuqarolarining o'zini o'zi boshqarish tizimining rivojlanishi o'rta asr feodal-teotsentrik dunyoqarashining inqiroziga olib keldi. Shu davrda inson aqli, qadr-qimmat, dunyoviy faolligi va erkinligini markazga qo'ygan yangi falsafiy-madaniy oqim – gumanizm vujudga keldi.

Gumanizmning dastlabki bosqichi “proto-gumanizm” yoki “ilk gumanizm” deb ataladi va u asosan Shimoliy Italiyada (Florensiya, Venetsiya, Milan, Rim)



shakllangan. Bu oqim feodal jamiyatning teotsentrik ruhiyatini tanqid qilib, insonni olam markaziga qo'yishga intildi[2].

Ilk gumanizmning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Qadimgi yunon-rim adabiyoti, falsafasi va san'atini qayta kashf etish va keng jamoatchilikka etkazish.
2. Klassik lotin tilini o'rta asr "barbar" lotinchasidan tozalash, Tsitseron va Vergiliy uslubini tiklash.
3. *Studia humanitatis* deb atalgan yangi ta'lim tizimini yaratish – grammatika, ritorika, she'riyat, tarix va axloqni o'z ichiga olgan.
4. Insonning dunyoviy faolligi (virtù), shuhrati va baxt-saodatini oqlash; shaxsiy ijod va intellektual erkinlikni targ'ib qilish.
5. Universitet skholastikasini tanqid qilib, amaliy hayot va insoniy tajribani falsafaning asosiy manbai deb hisoblash[3].

Shu o'rinda Ilk gumanistlar va ularning ijodiga to'xtalib o'tamiz:

Franchesko Petrarka (1304–1374) – gumanizmning "otasi". U antik merosni tizimli qayta tiklashga birinchi bo'lib kirishdi. 1330–1360-yillarda Yevropadagi monastir va shaxsiy kutubxonalarni tadqiq qilib, Tsitseronning 18 ta yo'qolgan maktublari, Kvintilianning *Institutio Rhetorica*, Vergiliyning asl qo'lyozmalarini topdi.

Uning asarlari: Afrika (epik doston), Kanconiere (366 she'r), Yolg'izlik hayoti haqida, O'ziga va ko'pchilikka maktublar. Asarlarida gumanistik g'oya: insonning ichki dunyosi, sevgi, hayot va o'lim haqida ochiq ifoda etilgan[1].

Shuningdek, skholastikaga qarshi tanqid: "Skholastikaga qarshi invektivalar" asarida Aristotel falsafasining arab sharhlari va dialektik munozaralarni tanqid qildi.

Jovanni Bokkacho (1313–1375) – Petrarkaning izdoshi. U o'zining "Dekameron" (1353) asari orqali oddiy odamlarning aql-zakovati, hazilkashligi, axloqsizligi ochiq tasvirlandi. Yunon-rim mifologiyasini 15 kitobdan iborat "Genealogia deorum gentilium" asarida tizimlashtirdi. Bundan tashqari, "De claris



mulieribus” – ayollarning jamiyatdagi o‘rnini ijobiy nuqtai nazardan yoritdi[5], bu davr adabiyotida yangilik edi.

Koluchcho Salyutati (1331–1406) – siyosiy-fuqarolik gumanizmning asoschisi. Davlat hujjatlarini klassik lotin tilida yozib, Florensiyani “yangi Afina va Rim” deb ulug‘ladi. U o‘zining “De tyranno” (1400) asarida respublika erkinligi va fuqarolik fazilatlarini himoya qildi. Faoliyati davomida Salyutati Florensiyada birinchi gumanistik doira: Leonardo Bruni, Poggio Bracchiolini, Nikolo Nikcoli kabi yosh olimlarni tarbiyaladi.

Leonardo Bruni (1370–1444) – “yangi Tsitseron”. Ushbu gumanist yunon tilini chuqur o‘rgandi, Platon, Aristotel, Plutarx, Demosten asarlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri yunon tilidan lotin tiliga tarjima qildi. Uning “Florensiya xalqi haqidagi nutq” (1403–1404) asarida – shaharni erkinlik va madaniyat markazi sifatida ulug‘ladi. “Historia Florentini populi” (1415–1444) asari bilan – zamonaviy tarixshunoslikning asosini yaratdi[2].

Poggio Bracchiolini (1380–1459) – faol qo‘lyozma ovchisi. Poggio Bracchiolini 1414-1418-yillarda Konstans soborida nemis va shveysar monastirlaridan Lukretsiyning Tabiat haqida, Kvintilianning Institutes, Vitruviyning Me‘morchilik haqida kabi yo‘qolgan asarlarni topdi. Uning “Fasetiyalar” asari (1430–1450) – skholastik olimlarni ochiq masxara qilgan satirasidir.

Lorenzo Valla (1407–1457) – tilshunoslik va tanqidiy fikrlashning otasi. Ushbu gumanist “De falso credita et ementita Constantini donation” (1440) – Konstantin sovg‘asi hujjatining soxta ekanligini isbotlab, papalik da‘volariga zarba berdi. Shuningdek, “Elegantiae linguae latinae” – lotin tilining grammatik qoidalarini tizimlashtirdi[4].

Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlar asosida Ilk gumanistlar faoliyatining natijalari to‘xtalsak, ular quyidagicha:

-1500-yilga kelib Italiyada 1000 dan ortiq shaxsiy kutubxona tashkil qilindi;



-Yunon tili o'rganila boshlandi (Masalan, Manuel Xrizolor, 1397-yildan Florensiyada dars berdi);

-Inson hayotining maqsadi – “shuhrat va foydali ish” deb e'lon qilindi;

-Fuqarolik erkinligi va respublika tuzumi ulug'landi;

-Gumanistlar antik falsafa va san'atning qayta tiklanishi orqali Yevropada Renessans madaniy-intellektual poydevorini yaratdilar[6].

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, O'rta asrlar oxiridagi faoliyat ko'rsatgan ilk gumanistlar – Franchesko Petrarka, Jovanni Bokkacho, Koluchcho Salyutati, Leonardo Bruni, Poggio Bracchiolini, Lorenzo Valla va ularning bir qator yetuk izdoshlari – qadimgi yunon-rim madaniyatini qayta tiklab, insonni olam markaziga qo'ydilar. Ularning ijodi o'rta asr teotsentrizmidan zamonaviy antropotsentrizmga o'tishning birinchi bosqichi bo'ldi. Shu bilan birga, ularning asarlari siyosiy, ilmiy va adabiy sohalarda Yevropa madaniyatini tubdan o'zgartirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Abduhalimov B. Umumjahon tarixi. Toshkent: Universitet, 2018. 245-268 b.
- 2.G'afforov Ya. Renessans va gumanizm. Toshkent: O'zbekiston, 2020. 56-98 b.
- 3.Qodirov Sh. Yevropa madaniyati tarixi. Toshkent: Fan, 2019. 112-156 b.
- 4.Petrarka f.. Estetika va adabiy tanqid. Toshkent: Fan, 1985.(tarjima) 98-178 b.
- 5.Garen E. Italiya Renessansi muammolari. Toshkent: Sharq, 1990 (tarjima). 45-142 b.
- 6.Rutenburg V. Y. Vozrozhdenie titanlari. Toshkent: O'zbekiston, 1995 (tarjima). 66-81-b.